

ANQARA JANGI.

Namangan davlat universiteti.

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo`nalishi talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o`g`li

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

[Tel: +998957707796](tel:+998957707796)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikki buyuk turk, Amir Temur va Boyazid Yildirim o`rtsidagi, dunyoga ta`sir ko`rsatgan mashhur jang Anqara jangini kelib chiqish sabablari, urushdagi taktika va harakatlar, shuningdek jang natijasi haqida ma`lumot beriladi.

**Kalit so`zlar:** Amir Temur, Boyazid Yildirim, Qorabog`, Suriya, Qizilirmoq, Anqara, Suyurg`atmish.

XIV asr oxiri XV asr boshlarida Amir Temur Osiyoda, Boyazid Yevropada muvffaqiyatli urushlar olib borib, turli xalqlarni o`zlariga bo`ysintirdilar. Amir Temurning davlatin g`arbiy chegarasi bevosita Usmoniylar davlati hududlariga yaqinlashti. Amir Temur Usmoniylar davlati bilan urushish niyatida bo`lmagan. Hatto Boyazidga g`ayridinlarni bo`ysintirishga yordam berish uchun 20 ming qo`shin yubormoqchi bo`ldi. Lekin Boyazid Amir Temurdan hadiksirar edi. Chunki itfoqchilari bo`lmish Misir va Oltin O`rda Amir Temurdan yengilgan edi. Boyazidni xatolari natijasida urush bo`ldi.

Hindiston yurishidan qaytgan Temur Samarqanda qisqa vaqt dam olgach, G`arbiy Osiyoga yangi safar hozirligini ko`rib qo`shinlari bilan yo`lga chiqdi. Qishni Qorabog`da o`tkazgan Temur, harbiy tayorgarlikdan keyin yozda Suriyaga yurish qildi. Avval Halab (Aleppo) va Bayrut shaharlari olinib, 1401 – yilning boshlarida bir oylik qamaldan so`ng Damashiq ham taslim bo`ldi. Suruya hududlari zabt etilgach Temur qo`shinga biroz dam berish maqsadida Qorabog`ga qayti. Chunki muttasil yurushlar, shidatli janglardan horib, behisob o`ljalardan medasi to`ygan qo`shin o`zini avvaligi jangavorlik shiddatini yo`qotgan edi. Buning ustiga Yoshi oltmishdan oshgan Temur qattiq xastalangan edi. [2. – B 13]

Bu paytda Boyazid Yevropa hududlarida ko'plab hukumdorlarni bo'ysintirib, katta kuchga ega bo'ldi. G'alabalari uni hech bir hukumdorni mensitmas edi. Temurni Suruya hududlaridagi g'alabalaridan keyin unga ko'plab yomon maktublar yubordi. Bundan tashqari Temurni dushmani bo'lgan Qora Yusuf Boyazid huzuriga qochgan edi. Boyazid yaqinlari sulh tuzishni maslahat berdilar. Shu maqsada, o'z elchilarini Qorabog'ga Temur huzuriga yubordi. Elchilik mazmuni ham ikki o'rtada sulh tuzushga qaratilgani uchun Temur ularni hurmatini joyiga qo'yib, izzat – ikrom ko'rsatdi. Temur elchilarga “Boyazidga qarshi qo'shin tortmasligini, Boyazid faranglarga qarshi g'azot qilayotganiligi sababli, faranglarni kuchaytirib ahli islomni kuchsizlanishini istamasligini” bildirdi. Ammo Qora Yusufni Boyazidni o'zi oldirsin, o'ldirmasa tutub huziriga yuborishini, agar bu ikkisini ham qilmasa davlat hududidan chiqarishini aytdi.[5. – B 325].

Boyazid va Temur o'rtasidagi maktub almashunuvi borgan sari keskin tus oldi. Qora Yusufni ham mamlakatdan chiqib ketdi degan gap tarqatdi. Boyazidni Temurga yo'lagan maktublari qanchalik haqoratli bo'lmasin, Temur o'z yaqinlarini, o'zi kabi islom dinini yoyuvchi hukumdorga urush qilmaslik maslahatlariga quloq solar edi. Ammo Boyazidni urushga tayorgarlik ko'rayotgani. Halab, Edessa (Ray) va Diyorbakirga harbiy qismlar yuborganini eshitgan Temur o'z qoshinlari bilan Kichik Osiyo tomon yo'l oldi. Temur bu yurishga o'zi bilan 800 ming askar va hamrohlari bilan qatnashdi. Bu qadar ko'p qo'shini taminlash uchun, Hindistonga yurush qilgani ma'lum bo'ladi.

Boyazidni yuqorida ko'rsatilgan shaharlarda qo'shin yuborgani, Misir sultoni madadidan umid uzmagani, Bog'dodga yaqinlasa, uning aholisi qo'zg'olon ko'tarilishiga ishonganligi va Temur bilan jangdi Kichik Osiyoni janubida bo'lishini xoxlagan edi. Ammo Temur Gurjistondan Boyazid qo'shinlarini orqasidan zarba berib, urushni Kichik Osiyoni shimoliy qismiga ko'chirishga erishdi.

27 – aprel kuni Temur Kura daryosidan kechib o'tgandan keyin o'z qo'shini bilan Barda, Ganja va Olatog' tomon yurib yo'l – yo'lakay Tartum qal'asini qo'lga kiriti. U yerdan Ovanik va Arzrum tomon yurib, Boyazidning Kichik Osiyodagi shimoliy yerlarga bostirib kirdi. Bu hududa Boyazid mulki bo'lgan Kemox qal'asini qo'lga kiritib, Sivos tomon yo'l oldi. Shahar atrofida qarorgoh qurgan Temur Boyzid tomonidan yuborilgan elchilar oldida harbiy ko'rik o'tkazdi. Bu ko'rik paytida qo'shin va sarkardalar Temurga

sodiqligi haqida qasam ichdilar. Elchilar qo`shin ichidan olib o`tdi. Ular askarlarni bo`y basti, qurollari, tezkorligi, boshliqlarini so`zini ikki qilmasligini ko`rdi. Bulari turk elchilarida Temurni kuchliligi va Boyazidan ustinligini bildirish edi.

Amir Temur qorovullarini xabar berishlaricha, Toqattomonga boruvchi yo`l o`rmonlar o`rtasidan o`tgan va bu o`tish joyi juda tor edi. Kop`lab turk askarlari ushbu shahar atrofida paydo bo`lishgan, Qizilirmoq daryosini barcha kechuv joylari esa ular tomonidan egallangan edi. Boyazidni qo`shini asosan piyoda askarlardan iborat edi. Temur qo`shinlarida otliqlar asosiy edi. Shu tufayli Temur o`ziga noqulay yerda jang qilmaslika qaror qildi. Shu bilan birga Boyazidni Misir, Suriya va Bog`dod bilan bo`ladigan aloqa yo`llarini to`sb qo`yish, uni ochiq tekis yerga jalb qilish hamda Qizilirmoqni turklar qo`riqlamagan joydan kesib o`tish maqsadida u Qaysariy shayri tomon yo`l oldi va 6 kun deganda bu shaharga yetib keldi. Temur bu yerda qo`shiniga kerakli zaxiralarni to`plab, Anguriya (Anqara) qal`asi tomonga yurdi. U 4 kunda 120 chaqirim yo`l bosib Kirshahriga yetib keldi. Anqarani qamalga oldi. Boyazid g`azab otiga mininb qamaldagilarga yordam berish maqsadida jo`nadi.

Bu paytda Boyazid qo`shinlari bilan kelayotgani ma`lum bo`ldi. Temur Boyazid qo`shinlarini kelayotgan yo`nalish va tayorgarligini bilish uchun 1000 kishilik otliqlarni yubordi. [4. – B 188 - 190].

Temur qamalni to`xtatdi va raqibni kutub olish taradudini ko`rdi. Qo`shin qismlarini jang olib borishga qulay joylarga joylashtirdi. O`rdaning atrofini handaqlar bilan o`radi. Natijada Boyazid qo`shinlari o`zi uchun o`ta noqulay shart – sharoitda urushga kirishga majbur bo`ldi. Boyazid cheriki ayniqsa, suvsizlikdan qiynaldi. Turk cheriklari tarafdagi birgina buloqni ham Temur askarlari tomonidan yaroqsiz holga keltirilgan edi. Temurni joyini o`zgartirganida, Boyazid o`z yo`lini boshqa tomon burdi. Anqara qal`asida o`g`ruqni qoldirib, qo`shni tezkorlik bilan o`z raqibi tomon boshlaydi. Temur Boyazidni ayorona harakatlaridan xabardor bo`lgach, Arzinjon – Sivos yo`lini tark etdi va so`lga burilib tog`tomonga yura boshladi. Temurni boshqa tomonga burulganligini Boyazid dushman qochti xayol qilib, jon – jahti bilan Sohibqiron ketiga tushti. Temur tahminan 8 kun davomida tog`larda tin oldi. Shundan so`ng tekis yo`l orqali Anqara tomon ravona bo`ldi va u yerda qoldirilgan Boyazid o`g`ruqini qo`lga oldi. Temurni Anqarda ekanligini bilgan

Boyazid katta tezlik bilan u tomon jo`nadi. Yetib kelganda qo`shini holsizlanib charchab qolgandi. Bu ham Temur tomonidan ishlatigan harbiy aldash edi.

Temur va Boyazid o`rtasidagi hal qiluvchi jang 1402 – yil 25 – iyulda bo`lib o`tdi. Bu jangda Boyazini taxminan 160 ming askari bo`lgan. Manbalarda bu jangda ikki tomondan yarim millon kishi qatnashganligi haqidagi mulohazalardan kelib chiqib, Temur qo`shini turk askarlaridan kam bo`lmaganini bilib olish mumkin. Boyazid harbiy harakatlar boshlanishi bilanoq taktik jihatdan xatoliklarga yo`l qo`ydi. Qo`shini jang maydonida noqulay o`rnashishi, jangchilar va lashkarboshilar o`rtasida harbiy intizomni bo`shligi, bo`lajak og`ir to`qnashuv oldi tayorgarlik juda sustligi va qo`shin ta`minot kabi muomalar Boyazidni yengilishini oldindan malum darajada belgilagan edi.

Kun chiqishi bilan jang boshlandi. Temur o`zini ananaviy jang taktikasi – yasolda harakat qildi. Sipohni qirq qo`shin – qismidan tashkil etilgan humoyun markazi – qo`lga Sohibqiron bevosita qo`mondonlik qildi. Juvang`orga Shohrux Mirzo va Xalil Sultonlar. Jivong`or hurovulga Mirzo Husayn, Ali Sulton tavachi hamda Muso tayinlandi. Barang`ar askarlariga Amirshoh Mirzo yetakchilik qildi. Amir Shayx Nuriddin, Amir Burunduq, Ali Qavchin va boshqa lashkarboshilar qo`yilgan edi.

Markaz qo`lni o`ng tarafida Toshtemur o`g`lon, Umarshayx mirzoni o`g`li Ahmad Mirzo, Toptuk, Yusuf mo`gul va boshqalar. Chap qo`lda esa Jalol Islom, Tavakkal qarqara, Ali Muhammad, Shohvali va boshqa sarkardalar o`rin oldi. Bu kuchlarga o`zga qismlarga madad bo`lish yuklatilgan edi. Markaz – qo`lda armiyani asosiy zafar paykar bayrog`i qadalgan edi.

Qarshi tomonda Boyazid qo`shinlarini qismlarga bo`ldi va o`zi ishongan kishilarini sardor qilib qo`ydi. Turk qo`shini old qismida Boyazidni qaynisi qora libos kiygan yigima ming faranglardan tuzulgan lashkar bilan saf tizib turar edi. Bu lashkar boshidan oyoq temir sovut bilan himoyalangan edi. Faqat ko`zi ochiq edi. Lashkarni juvang`ariga kinyaz Sitepan qo`mononligidagi serb durujnalari qo`yilgan edi. Cherek qalbi markazidan Boyazidni o`zi o`rin oldi. O`gillari Muso, Iso va Mustofoni chag`dovulga joylashtirdi. Qolgan sarkarda va amirlar o`ziga ma`qul joyga joylashtilar.

Jang muqadimasi Mironshoh Mirzo boshchiligidagi barang`ani g`anim juvang`ariga bergan kuchli zarbasi bilan boshlandi. Serblar matonat bilan Mironshohga qarshilik

ko'rsatdi. Boyazidni qisim qo'mondonlaridan biri Amir Jahonshoh va Amir Qora Usmon tomonidan qilingan hamlaga bardosh bera olmay jang maydonidan yuz o'girdi. Sulton Husain bayrog'i ostida birlashgan suvoriylar ham dushanga qirg'in keltiri. Temurdn ruxsat olib janga kirgan Muhammad Sulton Mirzo so'l qanotga yordamga o'tlanib, turklani barang'origa yordamga keladigan qism bilan to'qnashib g'alaba qildi.

Kechayotgan holatni sinchikovlik bilan kuzatib turgan Temur va mulozimi bo'lib turgan o'g'li Shohruh Mirzo Boyazid tomon ravona bo'ldi. Mironshoh Mirzo va Sulton Husayn Mirzolar ham u tomon jo'nab Boyazidni qurshab oldilar va kamondan o'q yog'dirdilar. Shidatli jangda Boyazid qo'shini chekina boshladi. Yancharlar bita qoldirmay qirib tashlangandan so'ng Boyazid va uning o'g'li Musoni, Chig'toy ulusi xonligiga 1388 – yili ko'tarilgan Muhammad ibn Suyurg'atmish asir oldi.[3. – B 77 - 80].

Boyazidning to'ng'ich o'g'li Sulaymon Chalabiy Bursaga, ikkinchi o'g'li Muhammad shimoli-sharq tomondagi tog'larga qochib ketdi. Asir tushgan Boyazidni Amir Temur huzuriga keltiradilar. Bu jangda Boyazidning xotini Serb malikasi Olivera, o'g'illaridan Muso va Iso Chalabiylar asirga tushadi. Sulaymon Chalabiy esa Bursaga borib, kemaga tushib qochishga zo'rg'a ulguradi.

Amir Temur shiddatli hujumni davom ettirib, butun Kichik Osiyoni egallaydi va O'rtayer dengizining sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahriga yetib boradi. O'rtayer dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari ham Amir Temur hukmronligini tan oladi, Ayni "chog'da" Misr podsholari ham taslim bo'ladilar.[1. – B 374]

Xulosa qilib aytganda qaysidir ma'noda ikki dindosh, millatdosh bo'lgan hukmdorlarni to'qnashuvi yaxshi voqia emas. Lekin bu paytda Boyazidni qilgan qilmishlari, Temurga yo'lgan maktublarida uni keskin haqoratlar qilgani, bundan tashqari Temurni dushmanlari bilan itfoq tuzib unga qarshi urish qilish xafi borligi sabab urushdan boshqa chorasi qolmadi. Bu jangda Temur o'zini harbiy sohada qanchalik bilim va ko'nikmaga ega ekanini ko'rsatdi. Yevropada shidatli janglarda g'alaba qozonib, o'z kuchiga behad ishongan Boyazidni yengdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.Shamsutdinov, Sh. Karimov, Vatan tarixi 1 -Toshkent: Sharq- nashiryot matbaa aksiyadorlik kompanyasi bosh tahriryati, 2010.512b.
2. А.Муҳаммаджонов, Темур ва темурийлар салтанати-Тошкент:Комуслар бош тахрирjати,1994.156 b.
3. Ҳ.Дадабоев Аждодларимизниг ҳарбий маҳорати-Тошкент:Akademnashir,2016.176 b.
4. М. Иванов, Икки буюк саркарда, Чингизхон ва Амир Темур - Тошкент: Узбекистон Республикаси Фанлар академиясининг Фан нашрjети, 1994. 240 b.
5. Н.Шомий Зафарнома –Тошкент:Узбекистон.1996.528 b